

“TASDIQLANGAN”
“KAFIL SUG'URTA” AJ
Boshqaruv raisi F.A.Artikov
2023- yil 16- noyabr

**“TRAVEL.online” “KAFIL SUG'URTA” AJ ning CHET ELGA CHIQUVCHI JISMONIY SHAXSLARNI
SUG'URTA QILISH OFERTASI**
(2024- yil 1- yanvardan joriy etiladi)

Ushbu Ommaviy oferta (bundan buyon matnda Oferta deb yuritiladi) “KAFIL-SUG'URTA” AJ ning (bundan buyon matnda Sug'urtalovchi deb yuritiladi) noma'lum doiradagi jismoniy shaxslarga (bundan buyon Sug'urta qildiruvchi deb yuritiladi) yullangan quyidagi sug'urta shartlarida sug'urta shartnomasini Sug'urtalovchining axborot tizimlari vositasida tuzish taklifi bulib hisoblanadi. Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi shartnoma taraflaridir.

Mazkur Oferta shartlarining qabul qilinishi va shartlashilgan sug'urta mukofotining to'lanishi uning shartlarini akseptlash hamda Sug'urta qildiruvchining Sug'urta shartnomasini tuzishga roziligi bo'lib hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlanganidan keyin unga elektron sug'urta polisi yuboriladi va Sug'urta shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq Oferta shartlarining qabul qilinishi mazkur Oferta shartlarini so'zsiz qabul qilingan deb hisoblanadi va u bilan quyidagilarga rozilik ifodalanadi:

- mazkur Oferta shartlari, jumladan unda bayon qilingan sug'urta shartlariga rozilik;
- arizani to'ldirishda ko'rsatilgan shaxsga doir ma'lumotlar bilan sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan tarzda ishlov berish yuli orqali 5 yil muddatga ishlashga, jumladan ularni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish, ulardan foydalanish, ularni egasini ko'rsatmaslik, bloklash, yo'q qilishga (yo'q qilish haqida xabar qilmagan holda), shuningdek sug'urta shartnomasini bajarish, ichki hujjat aylanmasini ta'minlash maqsadida uchinchi shaxslarga ularni berishga rozilik.

Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining internet resursi vositasida Sug'urta shartnomasini tuzish natijasida o'z huquqi va muomalaga layoqatligini tasdiqlaydi, shuningdek o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar yuzasidan javobgarlikni anglaydi.

Sug'urtalovchining internet resursida onlayn tarzda Sug'urta shartnomasini tuzish uchun Sug'urta qildiruvchidan uning elektron pochta manzili (agar bor bo'lsa) va mobil telefon raqami mavjudligi talab qilinadi.

Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchining internet resursida Sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur va muhim bo'lgan barcha ma'lumotlarni kiritish Sug'urta uchun ariza bo'lib hisoblanadi.

Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 933-moddasiga muvofiq sug'urta sirini saqlashga javobgar bo'ladi. «Oferta», «Sug'urta shartnomasi» va «Sug'urta polisi» havolalari bundan buyon matnda mazkur elektron hujjatga nisbatan bir xil ahamiyatga ega bo'ladi.

1- BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur “Chet elga chiquvchi jismoniy shaxslarni” sug'urtalash Ofertasi (keyingi o'rinlarda - «Oferta») sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va “KAFIL SUG'URTA” aksiyadorlik jamiyatining (O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq olingan litsenziya asosida faoliyat yuritadi, bundan buyon matnda Sug'urtalovchi deb yuritiladi) axborot tizimlari - “online” yordamida chet elga chiquvchi jismoniy shaxslarni sug'urtalash shartlarini belgilab beradi. Qoida o'zbek, rus va ingliz tillarida ishlab chiqilgan. Sug'urta qoidalariga faol havola Sug'urtalovchining saytida <https://kafil.uz/storage/sugurta-qoidalari/08.pdf> manzili bo'yicha joylashtirilgan.

1.2. Mazkur Oferta O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq, umumiy sug'urta sohasining “baxtsiz xodisalardan sug'urta qilish” 1-klassi va “kasallikdan ehtiyot shart sug'urtalash” 2-klassi qoidalari asosida ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasidan/doimiy yashash mamlakatidan/Sug'urtalangan shaxs fuqarosi bo'lgan mamlakatdan/Sug'urtalangan shaxsga yashash guvohnomasini bergan mamlakatdan tashqariga (bundan buyon matnda - xorijga) chiqib ketayotgan sayohatchilarni (sug'urtalangan shaxslarni) sug'urtalash tartibi va shartlarini belgilaydi.

1.3. Mazkur Oferta asosida, Sug'urtalovchi sug'urtalangan shaxslarga sug'urta himoyasini ta'minlaydi, ushbu qoidalarda nazarda tutilgan sug'urta hodisasi - baxtsiz hodisa va/yoki to'satdan kasallik natijasida tibbiy, tibbiy-transport va boshqa turdagi xarajatlari uchun sug'urta to'lovi/qoplamasini tashkil etish va/yoki amalga oshirish, shuningdek sug'urta davrida hamda polisning amal qilish hududida baxtsiz xodisa natijasida Sug'urtalangan shaxsning vafot etishi hollarida sug'urta to'lovi/qoplamasi to'lash tarzida sug'urta himoyasini taqdim etadi.

1.4. Sug'urta shartnomasi Sug'urtalovchi tomonidan ushbu Sug'urta qoidalariga muvofiq rasmiylashtiriladigan Polisni yozib berish yo'li bilan tuziladi. Shu munosabat bilan, ushbu Sug'urta qoidalariga bog'langan holda, Polis sug'urta shartnomasining yuridik kuchiga ega va qog'oz yoki elektron shaklda (bundan buyon matnda Polis yoki Sug'urta shartnomasi deb yuritiladi) rasmiylashtirilishi mumkin.

Sug'urta polisi qog'oz shaklida 3 (uchta) bir xil asl nusxadan iborat bo'lib, ulardan biri Sug'urta qildiruvchiga, ikkinchisi Elchixonalar yoki Konsullik muassasalariga (uni taqdim etish talabi mavjud bo'lgan taqdirda) beriladi, uchinchisi esa Sug'urtalovchining vakilida qoladi.

1.5. Ushbu Oferta asosida Sug'urtalovchi Sug'urta qilingan shaxslarga mazkur Sug'urta qoidalarida nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berganida Sug'urta qilingan shaxslarning sug'urta davrida va Polis amal qilishi hududida sodir bo'lgan baxtsiz hodisa va/yoki to'satdan kasallanish natijasida tibbiy, tibbiy-transport va boshqa xarajatlari bo'yicha sug'urta to'lovini/sug'urta ta'minotini tashkil qilish va/yoki amalga oshirish, shuningdek Sug'urta qilingan shaxs vafot etgan taqdirda sug'urta ta'minotini to'lash ko'rinishida sug'urta himoyasini taqdim etadi.

1.6. Sug'urta qildiruvchi ushbu Oferta asosida Shartnoma tuzgan holda, Sug'urtalovchiga tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni bozorda ilgari surish maqsadida, shuningdek tuzilgan Shartnomaning bajarilishini ta'minlash, yangi sug'urta dasturlari va sug'urta mahsulotlari to'g'risida xabardor qilish maqsadida Sug'urtalovchi tomonidan aloqa vositalari yordamida Sug'urta qildiruvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni amalga oshirish yo'li bilan xizmatlar sifatini baholash maqsadida Sug'urtalovchiga beriladigan hujjatlarda mavjud bo'lgan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga roziligini bildiradi.

Agar Sug'urta qilingan shaxs voyaga yetmagan shaxs bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi shaxsga doir ma'lumotlarga qonunga muvofiq, ishonchnoma yoki vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjat asosida ishlov berishga rozilik bildirib, uning manfaatlarini ko'zlab ish tutishini kafolatlaydi. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish shaxsga doir ma'lumotlarni ham qog'oz, ham elektron manbalarda yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), ulardan foydalanish, ularni tarqatish (shu jumladan uzatish), egasiz qilib qo'yish, bloklash, yo'q qilish orqali amalga oshiriladi.

Sug'urta qildiruvchining mazkur roziligi Polising amal qilishi davomida va sug'urta muddati tugaganidan keyin keyingi 5 (besh) yil davomida amal qiladi. Ushbu rozilik Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchiga tegishli yozma ariza yuborish orqali qaytarib olinishi mumkin.

2- BO'LIM. ASOSIY TUSHUNCHALAR

Ushbu Ofertada foydalaniladigan asosiy atamalar:

2.1. Sug'urta polisi (E-polis) – Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi tomonidan real vaqt rejimida shakllantirilgan seriya, raqamiga ega bo'lgan sug'urta qilish amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat. Polis qog'oz variantining namunaviy shakli ushbu Sug'urta qoidalarining 1-ilovasida keltirilgan.

(Shartnoma) – ushbu Sug'urta qoidalarida asosida Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi o'rtasida rasmiylashtiriladigan yozma bitim bo'lib, uning shartlariga muvofiq Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini belgilangan muddatda va to'liq hajmda to'lash majburiyatini, Sug'urtalovchi esa sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda sug'urta summasi doirasida sug'urta to'lovini/sug'urta ta'minotini amalga oshirish majburiyatini zimmasiga oladi.

2.2. Sug'urta summasi – Sug'urta polisida ko'rsatilgan, Sug'urtalovchining har bir Sug'urtalangan shaxsga nisbatan sug'urta to'loni/sug'urta to'lovini amalga oshirish bo'yicha eng yuqori majburiyatlari hajmini ifodalovchi pul mablag'lari miqdori. Ushbu sug'urta shartnomasida Sug'urta dasturiga kiruvchi har bir xizmat, shuningdek Sug'urta qildiruvchining vafotiga olib kelgan baxtsiz hodisadan sug'urta qilish bo'yicha sug'urta miqdorlari belgilangan.

2.3. Sug'urta mukofoti – Sug'urta qildiruvchi ushbu Qoidada belgilangan tartib va muddatda sug'urta uchun Sug'urtalovchiga to'lashi shart bo'lgan to'lov.

2.4. Sug'urta tavakkalchiligi – taxmin qilingan voqea bo'lib, ana shu voqea yuz berishidan ehtiyot shart sug'urta qilish amalga oshiriladi. Mazkur Qoida shartlariga muvofiq quyidagilar sug'urta tavakkalchiligi deb e'tirof etiladi:

- Sug'urtalangan shaxsning to'satdan kasallanishi yoki baxtsiz hodisaga uchrashi bilan bog'liq tibbiy, tibbiy-transport va boshqa xizmatlar bo'yicha xarajatlarning vujudga kelishi;
- baxtsiz hodisa natijasida Sug'urtalangan shaxsning vafot etishi.

2.5. Sug'urta voqeasi – sug'urta hodisasi belgilariga ega bo'lgan voqea.

2.6. Sug'urta hodisasi – sug'urta tavakkalchiligining yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'lgan, Sug'urtalangan shaxs bilan sug'urta davrida va Sug'urta polisi amal qilish hududida sodir bo'lgan voqea bo'lib, uning natijasida Sug'urtalovchining ushbu Qoida shartlariga muvofiq sug'urta to'lovi/qoplamasini amalga oshirish majburiyati vujudga keladi.

2.7. Muassasa – Sug'urtalangan shaxsga xizmatlar ko'rsatiladigan tibbiy yoki boshqa muassasa (apteka, diagnostik markaz va h.k.).

2.8. Sug'urta to'lovi – sug'urta hodisasi yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'lgan, Sug'urtalangan shaxsga muassasalar ko'rsatgan xizmatlar uchun Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta summasi doirasida va ushbu Qoidada belgilangan tartibda to'lanadigan pul mablag'lari.

2.9. Sug'urta polisining amal qilish muddati – Sug'urta polisida ko'rsatilgan vaqt bo'lib, uning davomida sug'urta amal qiladi.

2.10. Sug'urta davri – Sug'urtalovchining polisida ko'rsatilgan, sug'urta to'lovini amalga oshirish bo'yicha majburiyatlarning amal qiluvchi kunlari soni.

2.10. Sayohat – Sug'urtalangan shaxsning aniq bir muddatdagi horijga safari. (kunlar hisobida)

2.12. Xizmatlar – sug'urta dasturida nazarda tutilgan, sug'urta hodisasi ro'y berganda Sug'urtalangan shaxsga ko'rsatiladigan tibbiy, tibbiy-transport va boshqa xizmatlar.

2.13. Assistans – Sug'urtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga asosan faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs, shartnoma doirasida sug'urta hodisalari bo'yicha murojaatlarni kecha-kunduz qabul qiladi, Sug'urtalangan shaxsga ro'y bergan sug'urta hodisasi bo'yicha kerakli xizmatlarni olishda va moliyaviy ko'mak berishda xizmat ko'rsatadi.

Assistans Sug'urtalangan shaxsga ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati va hajmini nazorat qilish, shuningdek Sug'urtalovchi nomidan va topshirig'iga ko'ra xorijda Sug'urta qildiruvchiga/Sug'urtalangan shaxsga sug'urta hodisasi ro'y berganda uning xarajatlarini qoplash huquqiga ega.

2.14. To'satdan kasallanish – surunkali kasallikning va/yoki sayohat boshlanishidan avval mavjud bo'lgan kasallikning oqibati bo'lmagan, davolanish yoki davolanmaslik amalga oshirilganligidan qat'iy nazar, kechiktirib bo'lmaydigan

yordamni talab qiluvchi va ushbu Qoidada istisno sifatida belgilanmagan, sug'urta davrida va Sug'urta polisi amal qilish hududida kutilmaganda vujudga kelgan kasallik.

2.15. Kechiktirib bo'lmaydigan yordam – tibbiy yordam bo'lib, u ko'rsatilmagan holatda Sug'urtalangan shaxs hayotining xavf ostida qolishi.

2.16. Kechiktirib bo'lmaydigan stomatologik yordam – stomatologik tibbiy yordam, tishning va tishni o'rab turgan to'qimalarning o'tkir yallig'lanishi, shuningdek baxtsiz hodisa natijasida tish shikastlanishida og'riqni olish vositalari va birlamchi muolajalar (rentgen, dori-darmonlar, vaqtinchalik plomba yoki tish oldirish) bilan cheklanadi.

2.17. Surunkali kasallik – kishi organizmining a'zolari va tizimlarini shikastlanishi bilan uzoq vaqt kechuvchi, zo'rayish va zaiflashuv davrlari bilan tavsiflanuvchi kasallik.

2.18. Surunkali kasallikning zo'rayishi – surunkali kasallikning xarakterli belgilarining namoyon bo'lishi, shu jumladan shoshilinch yordamga zarurat bo'lgan belgilar.

2.20. Baxtsiz hodisa – Sug'urtalangan shaxs erkiga bog'liq bo'lmagan tasodifan yuz beruvchi qisqa muddatli hodisa bo'lib, kishi organizmiga tashqi ta'sir ko'rsatadi va travmatik (jarohatli) shikastlarni keltirib chiqaradi; kuyish, portlash, chaqmoq urishi, elektr toki ta'siri natijasida tana shikastlanishi; oзуq yoki kimyoviy (sanoat yoki maishiy) moddalar bilan zaharlanish va/yoki zaharli va/yoki kuydiruvchi moddalar, bug'lar yoki gazlar bilan nafas olganda yoki tegib ketganda vujudga kelgan kuyishlar; sovuq urish, cho'kish, yovuz niyatli odamlar yoki hayvonlarning tajovuzi, xasharotlarning va sudralib yuruvchilarning chaqishi, nafas olish yo'liga yot jismlarning behosdan tushishi; zaharli o'simliklar bilan behosdan zaharlanish va /yoki vafot etish.

2.21. Tibbiy evakuatsiya – Sug'urtalangan shaxsni bir joydan boshqa joyga zaruratga qarab tibbiy xodim hamrohligida har qanday mumkin bo'lgan va mos transport vositasi yordamida yetkazish uchun zaruriy chora-tadbirlar majmuasi. Tibbiy evakuatsiya faqat tibbiy qarshi ko'rsatmalar mavjud bo'lmaganda va shifokor ruxsati bilan amalga oshiriladi.

2.22. Repatriatsiya – Sug'urtalangan shaxs jasadini har qanday mumkin bo'lgan va mos transport vositasi yordamida doimiy yashash mamlakati aeroportigacha yetkazish uchun zaruriy chora-tadbirlar majmuasi. Qarindoshlar iltimosi bo'yicha repatriatsiya O'zbekiston Respublikasidan boshqa yashash mamlakatiga, Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasigacha repatriatsiya qilish uchun to'lashi zarur bo'lgan sug'urta tovonni miqdoridan oshmagan holda amalga oshirilishi mumkin. Repatriatsiya shartlari Sug'urtalovchi tomonidan Qoidalar asosida tartibga solinadi.

2.23. Retsept – shifokorning dori vositalarini qabul qilish va/yoki tibbiy preparatlarni qo'llash bo'yicha yozma ko'rsatmasi.

2.24. Jismoniy ish – asosiy yuklamani skelet mushaklariga tushiruvchi va insonning tayanch-harakat apparatini harakatlantiruvchi ishlar turi.

2.25. Murojaat – Sug'urta qildiruvchining yoki Sug'urta badalini olishga haqli bo'lgan boshqa shaxsning, Sug'urtalovchiga Sug'urta hodisasi natijasida ro'y bergan zararga ta'sir ko'rsatuvchi sabablar va holatlar ko'rsatilgan yozma murojaati.

3- BO'LIM. SUG'URTA SUBYEKTLARI VA OBYEKTI

3.1. Mazkur Oferta bo'yicha sug'urta munosabatlarning sub'ektlari Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi, Sug'urtalangan shaxs yoki Naf oluvchi hisoblanadi.

3.2. O'zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo'lgan yuridik yoki muomalaga layoqatli jismoniy shaxs ushbu Sug'urta qoidalar bo'yicha Sug'urta qildiruvchi bo'lishi mumkin bo'lib, u Sug'urtalovchi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan holda mazkur Sug'urta qoidalarida belgilangan tartibda va shartlarda sug'urta mukofotini to'laydi.

3.3. Sug'urta shartnomasi layoqatli jismoniy shaxs manfaatida tuzilgan bo'lsa, ushbu shaxs Sug'urtalangan shaxs xisoblanadi. Agar Sug'urta qilingan shaxs voyaga yetmagan bo'lsa, to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta ta'minoti uning qonuniy vakiliga (ota-onasining/vasiylarining biriga) to'lanishi mumkin.

3.4. Naf oluvchi- sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sug'urta ta'minotini olish huquqiga ega bo'lgan shaxs.

3.5. Mazkur Qoidaga ko'ra, sug'urta ob'ekti sug'urtalangan shaxsning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazish bilan bog'liq bo'lgan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo'lmagan mulkiy manfaatlari hisoblanadi.

4- BO'LIM. SUG'URTA DAVRI

4.1. Sug'urta davri Sug'urtalangan shaxsning xorijda bo'lish muddatiga mos, biroq bir yil muddatdan ko'p bo'lmagan davrda belgilanadi.

4.2. Sug'urta davri Sug'urta polisida Sug'urta polisining amal qilish sanasi deb ko'rsatilgan kunning 00:00:00 soatida, lekin Sug'urtalangan shaxsning Sug'urta polisi amal qilish hududi chegarasini bosib o'tishdan avval bo'lmagan (pasportda chegara xizmatlarining qabul qiluvchi mamlakatga kirib kelish to'g'risidagi belgisi) vaqtda boshlanadi.

4.3. Sug'urta davri Sug'urtalangan shaxsning Sug'urta polisi amal qilish hududi chegarasini bosib o'tgandan (pasportda chegara xizmatlarining qabul qiluvchi mamlakatdan chiqib ketish to'g'risidagi belgisi) so'ng, lekin Sug'urta polisida Sug'urta polisining amal qilish muddati tugashi sifatida ko'rsatilgan kunning 23:59:59 soatidan kech bo'lmagan vaqtda tugaydi.

4.4. Agar Sug'urtalangan shaxsning tegishli tibbiy xulosa bilan tasdiqlangan sug'urta hodisasi sababli shifoxonaga yotqizilishi bilan bog'liq ravishda sug'urta davri tugaydigan kunda xorijdan qaytish imkoniyati bo'lmasa, Sug'urtalovchi ushbu sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan o'z majburiyatlarini sug'urta miqdori chegarasida bajarishni davom ettiradi.

4.5. «Shengen kelishuvi» mamlakatlariga 92 (to'qson ikki) kungacha muddatga Sug'urta polisini rasmiylashtirganda, Sug'urta polisining amal qilish muddatida ko'rsatilgan sayohat kunlari soniga qo'shimcha 15 (o'n besh) kun qo'shiladi.

4.6. Agar Sug'urta polisi, Sug'urta polisining amal qilish muddatida Sug'urtalangan shaxsning xorijga sayohatlari sonidan qat'iy nazar, uning ko'p martalik sayohatini nazarda tutsa, sug'urta davri tanlangan ko'p martalik sayohatlar rejasini («Multi» reja)ga quyidagicha bog'liq bo'ladi:

	Reja nomi	Sug'urta polisining amal qilish muddati	Sug'urta davri
a)	Multi I	92 kungacha	30 kundan ortiq emas
b)	Multi II	183 kungacha	90 kundan ortiq emas
v)	Multi III	365 kungacha	90 kundan ortiq emas
g)	Multi IV	365 kungacha	180 kundan ortiq emas
i)	Student	365 kungacha	365 kungacha
f)	Work	365 kungacha	365 kungacha

5- BO'LIM. SUG'URTA QILISH DASTURI VA SUG'URTA POLISINING AMAL QILISH HUDUDI

5.1. Sug'urta dasturi – ushbu Oferta doirasida Sug'urtalangan shaxsga taqdim qilinishi mumkin bo'lgan sug'urta summalariga ega xizmatlar to'plami.

5.2. Sug'urtalovchi, sug'urta qildiruvchi tomonidan arizani to'ldirishda tanlanadigan quyidagi Sug'urta qilish dasturlaridan biri bo'yicha majburiyatlarni qabul qiladi. Sug'urta qildiruvchi tomonidan tanlangan Dastur Sug'urta polisida ko'rsatiladi:

Barcha sug'urta summolari Yevroda ko'rsatilgan.

Sug'urta dasturlari		BASIC	OPTIMAL	LUXURY	OPTIMAL+ STOP COVID	LUXURY +STOP COVID
Sug'urta summasi:		30,000	60,000	100,000	63,000	105,000
№	Xizmatlar ro'yxati	Har bir xizmat bo'yicha sug'urta summolari				
1	Tibbiy xizmatlar, shu jumladan:	15,000 gacha	30,000 gacha	50,000 gacha	33,000 gacha	55,000 gacha
1.1	stomatologik yordam	500 gacha	500 gacha	1,000 gacha	500 gacha	1,000 gacha
1.2	COVID-19da yordam	yuq	yuq	yuq	3,000 gacha	5,000 gacha
1.3	Boshqa tibbiy xizmatlar	14,500 gacha	29,500 gacha	49,000 gacha	29,500 gacha	49,000 gacha
2	Tibbiy–transport va boshqa xizmatlar, shu jumladan:	12,000 gacha	23,000 gacha	36,000 gacha	23,000 gacha	36,000 gacha
2.1	Tibbiy evakuatsiya	2,000 gacha	4,000 gacha	8,000 gacha	4,000 gacha	8,000 gacha
2.2	Sug'urtalangan shaxsni transportda tashish	1,000 gacha	2,000 gacha	4,000 gacha	2,000 gacha	4,000 gacha
2.3	Sug'urtalangan shaxsni voyaga yetmagan farzandlarini transportda tashish	500	1,000 gacha	2,000 gacha	1,000 gacha	2,000 gacha
2.4	Kuzatuvchi shaxsni transportda tashish	500	1,000 gacha	2,000 gacha	1,000 gacha	2,000 gacha
2.5	Repatriatsiya	8,000 gacha	15,000 gacha	20,000 gacha	15,000 gacha	20,000 gacha
3	Boshqa xizmatlar uchun limit, shu jumladan:	2,500 gacha	5,000 gacha	10,000 gacha	5,000 gacha	10,000 gacha
3.1	Qidiruv-qutqaruv chora-tadbirlari	1,500 gacha	3,000 gacha	5,000 gacha	3,000 gacha	5,000 gacha
3.2	Vaqtincha bo'lish mamlakatida dafn etish	1,000 gacha	2,000 gacha	5,000 gacha	2,000 gacha	5,000 gacha
4	Kompensatsiya limiti	500 gacha	2,000 gacha	4,000 gacha	2,000 gacha	4,000 gacha

5.3. Sug'urta polisining amal qilish hududi Sug'urtalangan shaxsning bo'lish mamlakati yoki mamlakatlarini anglatadi va quyidagi hududiy bo'linmalar bo'yicha tanlangan, Sug'urta qilish dasturiga qarab aniqlanadi:

«BASIC» – Yevropa, «Shengen kelishuvi» mamlakatlari (shu jumladan, Buyuk Britaniya), Shimoliy va Janubiy Amerikadan tashqari barcha mamlakatlar hududida amal qiladi;

«OPTIMAL» – Shimoliy, Janubiy va O'rta Amerikadan tashqari barcha mamlakatlar hududida amal qiladi;

«LUXURY» – dunyoning barcha mamlakatlari hududida amal qiladi;

«OPTIMAL+STOPCOVID» – Shimoliy, Janubiy va O'rta Amerikadan tashqari barcha mamlakatlar hududida amal qiladi;

«LUXURY+ STOPCOVID» - dunyoning barcha mamlakatlari hududida amal qiladi.

5.4. Sug'urta polisining amal qilishi yetib borish qiyinligi jihatdan Shimoliy yoki Janubiy qutb bilan taqqoslanuvchi va ularga faqat maxsus transport yoki asbob-uskunalaridan, yordamchi vositalardan foydalangan holda va ekspeditsiya tarkibida borish mumkin bo'lgan mamlakatlarga tatbiq etilmaydi.

6- BO'LIM. SUG'URTA SUMMASI VA SUG'URTA MUKOFOTI

6.1. Sug'urta summasi Sug'urta qildiruvchi tomonidan tanlangan Sug'urta dasturiga bog'liq ravishda taraflar kelishuvi bilan belgilanadi va polisga kiritiladi.

6.2. Sug'urta mukofoti mazkur Qoidaning 1-ilovasida keltirilgan sug'urta tariflariga muvofiq axborot tizimlaridan foydalangan holda sug'urta davridan va tanlangan Sug'urta dasturidan kelib chiqib avtomatik ravishda hisoblanadi. Sug'urta mukofotining miqdori Sug'urta polisida ko'rsatiladi.

6.3. Sug'urtalovchi sug'urta mukofotini aniqlashda Sug'urtalangan shaxslarning yoshi va soni, safarning maqsadi, faoliyat sohasi, shuningdek sug'urta hodisasini ro'y berish xatari darajasiga ta'sir etuvchi boshqa omillarga qarab bazaviy sug'urta qilish tariflarda oshiruvchi yoki pasaytiruvchi koeffitsiyentlarni belgilaydi.

6.4. «Shengen kelishuvi» mamlakatlariga 92 (to'qson ikki) kungacha muddatga rasmiylashtirilgan Sug'urta polisi bo'yicha sug'urta miqdorining hajmini aniqlashda Sug'urta polisining amal qilish muddatiga qo'shimcha kiritilgan 15 (o'n besh) kun hisobga olinmaydi.

6.5. Sug'urta mukofoti Sug'urtalovchi tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan holda avtomatik ravishda hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchining ushbu sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) bo'yicha to'lanishi zarur bo'lgan sug'urta mukofoti miqdoriga roziligi Sug'urta mukofotini to'lash holati bo'lib sanaladi.

6.6. Sug'urta mukofoti O'zbekiston respublikasi milliy valyutasi-So'mda ko'rsatiladi, hamda Sug'urta qildiruvchi tomonidan butun sug'urta davriga, bir yo'la amalga oshiriladigan to'lov bilan to'lanadi.

6.7. Sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) muddatdan avval tugatilganda, ushbu Qoidaning 14-bandida ko'rsatilgan holatlardan tashqari Sug'urtalovchi tomonidan qaytarilmaydi.

7- BO'LIM. SUG'URTA SHARTNOMASINI TUZISH VA KUCHGA KIRISH TARTIBI

7.1. Sug'urta shartnomasi Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi/Sug'urtalangan shaxsga sug'urta xizmatlarini sotish va ko'rsatish shartlarini belgilovchi elektron hujjat sanaladi.

Polis Sug'urta qildiruvchining og'zaki murojaati yoki yozma tarzda Ariza-anketasi asosida rasmiylashtiriladi. Polis sug'urta mukofoti to'langandan so'ng Sug'urta qildiruvchiga beriladi.

7.2. Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchiga axborot tizimlaridan foydalangan holda taqdim etilgan ma'lumotlar asosida shakllanadi.

7.3. Sug'urta qildiruvchi elektron arizaning majburiy maydonlarini mustaqil va arizada ko'rsatilgan asl hujjatlarning ma'lumotlariga qat'iy muvofiq ravishda to'ldiradi.

7.4. Sug'urta qildiruvchi taqdim etilgan hujjatlarning haqqoniyligi va asl nusxalarga mosligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, shuningdek hujjatlar ularning asl nusxalariga mos kelmaganda, sug'urta hodisasi ro'y berganda, Sug'urtalovchi sug'urta badalini to'lashdan bosh tortish huquqiga egaligiga rozilik bildiradi.

7.5. Arizada ko'rsatilgan va unga kiritilgan hujjatlar ma'lumotlari avtomatik ravishda sug'urta shartnomasiga (Sug'urta polisiga) kiritiladi.

7.6. Tomonlar Sug'urta polisini Sug'urtalovchi tomonidan arizada ko'rsatilgan elektron pochta manziliga uzatish Sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasini (Sug'urta polisini) tegishli ravishda topshirish bo'lib hisoblanishiga o'z roziligini tasdiqlaydilar.

7.7. Sug'urta qildiruvchi Polisni olgandan so'ng Polisda ko'rsatilgan barcha Sug'urta qilingan shaxslarni mazkur Sug'urta qoidalar bilan tanishtirishi shart. Ushbu talabni buzish (bajarmaslik) Sug'urta qilingan shaxslarni mazkur Sug'urta qoidalarida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi va Sug'urtalovchiga mazkur Sug'urta qoidalar shartlari bilan tanishmaganlik va/yoki rozi emaslik borasida talablar qo'yish uchun asos bo'la olmaydi.

8- BO'LIM. SUG'URTA TO'LOVI VA QOPLAMASI

8.1. Ushbu Qoidada nazarda tutilgan Sug'urta hodisasi ro'y berganda Sug'urta qilish dasturiga kiritilgan har bir xizmat bo'yicha sug'urta summasi chegarasidagi to'lovlar quyidagi xizmatlar uchun xarajatlar amalga oshiriladi:

8.1.1. muassasada ambulator va statsionar (faqat kechiktirib bo'lmaydigan amaliyotlar) davolanish uchun, shu jumladan Sug'urta qildiruvchi shaxsni doimiy yashash joyigacha tibbiy evakuatsiyasini amalga oshirish mumkin bo'lgan va/yoki muassasadan chiqarilgan vaqtgacha tibbiy xizmatlarga (maslahatlarga), shifokor ko'rsatmasi asosidagi diagnostik va laboratoriya tekshiruvlariga, shifokor buyurgan dori-darmonlarga (retsept bo'yicha), bog'lov vositalari va fiksatsiya vositalariga (gips, bandaj) xarajatlar;

8.1.2. Sug'urtalangan shaxsning homiladorligini og'irlashishi/majburiy to'xtatilishi holatida kechiktirib bo'lmaydigan yordam uchun, homiladorlik davri 32 (o'ttiz ikki) haftadan oshmaslik, shuningdek ushbu holat baxtsiz hodisa tufayli vujudga kelganligi sharti bilan 700 (etti yuz) Yevrogacha miqdorda;

8.1.3. tanlangan Sug'urta qilish dasturida ko'rsatilgan sug'urta miqdori chegarasida kechiktirib bo'lmaydigan stomatologik yordam uchun;

8.1.4. Sug'urtalangan shaxsni hodisa ro'y bergan joydan eng yaqin muassasaga yoki eng yaqin shifokorga, yohud bir muassasadan boshqasiga (vaqtinchalik yashash mamlakati chegarasida), yohud doimiy yashash mamlakatigacha tibbiy evakuatsiya uchun. Bunda tibbiy evakuatsiyaning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi qaror faqat Sug'urtalovchining vakolatli shifokorlari tomonidan, kechiktirib bo'lmaydigan yordam zarurligi sharti bilan qabul qilinadi. Tibbiy evakuatsiya uchinchi shaxs tomonidan Sug'urtalovchi bilan kelishilmagan holda tashkillashtirilganda, Sug'urtalovchi xarajatlarni Sug'urtalovchi tomonidan Assistans xizmati yordamida tibbiy evakuatsiyani amalga oshira olishi mumkin bo'lgan eng kam miqdor chegarasida to'laydi (sug'urta dasturida belgilangan maksimal miqdordan oshmagan holda);

8.1.5. Sug'urtalangan shaxsni tibbiy evakuatsiya mobaynida kuzatuvchi shaxsni transportda tashish uchun, agar bunday kuzatuv davolovchi shifokor ko'rsatmasi bo'yicha zarur bo'lsa;

8.1.6. sug'urta tavakkalchiligi ro'y berishi natijasida Sug'urtalangan shaxsni shifoxonaga yotqizilishi sababli, u xarid qilgan chiptalardan foydalanish imkoniyati yo'qotilgan bo'lsa, Sug'urtalangan shaxsni doimiy yashash mamlakatiga qaytishi uchun. Sug'urtalovchi avval xarid qilingan chiptalarning qiymatini Sug'urtalangan shaxsga kompensatsiya qilib bermaydi.

8.1.7. Sug'urtalangan shaxsning voyaga yetmagan farzandlari Sug'urtalangan shaxs bilan ro'y bergan sug'urta hodisasi tufayli qarovsiz qolgan bo'lsa, Sug'urtalangan shaxsning voyaga yetmagan farzandlarini doimiy yashash mamlakatiga yetkazish, shuningdek yuqorida ko'rsatilgan vaziyat tufayli Sug'urtalangan shaxsning voyaga yetmagan farzandlari qaytib kelganda ularga zarur bo'lgan kuzatuvchi shaxsni transportda tashish xarajatlari (sug'urta dasturida belgilangan maksimal miqdordan oshmagan holda);

8.1.8. Sug'urtalangan shaxsni qidirish va qutqarish uchun zaruriy chora-tadbirlarni tashkillashtirish va amalga oshirish uchun harajatlar;

8.1.9. Sug'urta polisining amal qilish hududida Sug'urtalangan shaxsni dafn etish bilan bog'liq chora-tadbirlarni, diniy marosimlarga oid xizmatlardan tashqari, amalga oshirish;

8.1.10. Sug'urtalangan shaxsni doimiy yashash mamlakatida diniy marosimlarga oid va dafn etish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirishdan tashqari repatriatsiya qilish uchun. Agar repatriatsiyani uchinchi shaxs Sug'urtalovchi bilan kelishilmagan holda tashkillashtirsa, Sug'urtalovchi xarajatlarni Assistans xizmati yordamida repatriatsiyani amalga oshirish mumkin bo'lgan eng kam miqdorida to'laydi (sug'urta dasturida belgilangan miqdordan oshmagan holda);

8.2. Sug'urtalovchi xirurgik amaliyotlar uchun tibbiy xarajatlarni faqat ushbu muolaja kechiktirib bo'lmaz chora va Sug'urtalangan shaxsning tibbiy evakuatsiyasini tashkillashtirishdan so'ng doimiy yashash mamlakatida amalga oshirish mumkin bo'lmaganda to'laydi, ya'ni to'lov faqat amaliyotning darhol qilinmasligi Sug'urtalangan shaxsning hayotiga xavf soladigan yoki uning sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazadigan hollarda amalga oshiriladi.

8.3. Sug'urtalovchi dori-darmonlarni xarid qilish xarajatlarini faqat shifokor tomonidan berilgan retsept bo'yicha xarid qilingan holatda to'laydi.

8.4 Sug'urtalovchi, Assistans xizmatining hamkorlik to'g'risidagi shartnomalari mavjud bo'lmagan Turkiya va Misrning tibbiy markazlari, klinikalari va xususiy shifokorlari tomonidan ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar uchun xarajatlarni, Assistans xizmati yordamida olingan xizmatlarni to'lab berishi mumkin bo'lgan miqdorigina to'lab berish huquqiga ega (sug'urta dasturida belgilangan maksimal miqdordan oshmagan holda).

8.5. Sug'urtalovchining Sug'urta pulini to'lash bo'yicha majburiyatlarini sug'urta davri mobaynida va Sug'urta polisining amal qilish hududida yuz bergan sug'urta hodisalariga nisbatan amal qiladi.

8.6. Sug'urtalovchi Sug'urta dasturiga kiritilgan har bir xizmat uchun, shuningdek Sug'urtalangan shaxsning vafotiga olib kelgan baxtsiz hodisadan sug'urta qilish uchun sug'urta miqdori chegarasida sug'urta pulini to'lash bo'yicha majburiyatlarga ega.

9- BO'LIM. SUG'URTALANGAN SHAXS VAFOT ETGANDA TO'LANADIGAN SUG'URTA TO'LOVI

9.1. Baxtsiz hodisadan sug'urta qilish bo'yicha Sug'urtalovchi quyidagi hollarda Naf oluvchiga Sug'urtalash dasturida ko'rsatilgan sug'urta miqdorining to'liq hajmida sug'urta pulini to'laydi:

9.1.1. Sayohat mobaynida sug'urta davrida va Sug'urta polisining amal qilish hududida ro'y bergan baxtsiz hodisaning bevosita natijasida Sug'urtalangan shaxsning vafot etganda;

9.1.2. Sug'urta davrida va Sug'urta polisining amal qilish hududida ro'y bergan baxtsiz hodisaning bevosita natijasida, Sug'urtalangan shaxsning baxtsiz hodisa sodir bo'lgan vaqtdan boshlab bir yil ichida vafot etishi.

10- BO'LIM. SPORTNI SUG'URTALASH SHARTLARI

10.1. Ushbu Qoida bilan Sug'urtalangan shaxsning faol dam olishni o'tkazish chog'ida vujudga kelgan xarajatlari avtomatik ravishda qoplanadi. Bunda faol dam olish deganda sug'urta shartnomasi doirasida sayohatda bo'sh vaqtni sport o'yin-kulgilarida ishtirok etish va faol mashg'ulotlar bilan shug'ullanish (istalgan turdagi musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish va ishtirok etishdan tashqari) bilan o'tkazish usuli tushuniladi.

10.2. Sug'urtalangan shaxsning professional sport, shu jumladan, musobaqalar va mashg'ulotlar, tog' chang'isida va snoubordda uchishga mo'ljallangan maxsus jihozlangan trassalarda uchish, shuningdek kvadrosikllar, motorollerlar, mopedlar, skuterlar, suv skuterlarini minib yurish chog'ida yuzaga kelgan xarajatlari, mazkur Qoidaning «Maxsus shartlar» bo'limida «Sport» belgisining mavjudligi va oshiruvchi koeffitsiyentni qo'llash bilan sug'urta mukofotini to'lash sharti bilan qoplanadi.

Professional sport deganda ushbu sug'urta shartnomasi doirasida sportchi uchun asosiy faoliyat turi sanalgan, sport musobaqalarida ishtirok etish maqsadida tayyorgarlik ko'rish va ishtirok etish uchun shartnomaga muvofiq ish haqi yoki boshqa pul mukofoti oladigan sport tan olinadi.

10.3. Sug'urtalangan shaxsning tog' chang'isida va snoubordda uchishga mo'ljallangan maxsus jihozlangan trassalardan tashqarida uchish, suv ostida suzish yoki 30 (o'ttiz) metrdan ortiq chuqurlikka sho'ng'ish, shuningdek ushbu sport turlari bilan Shimoliy Muz okeanida va unga tutashgan dengizlarda shug'ullanish, regbi, syorfing, alpinizm, speleologiya, xelibord, motosport, daunxill, kaytbord, uchish qurilmalarida parvoz qilish, parashyutda sakrash, bobsley, planerizm, deltaplanerizm, paraplanerizm, paraglayding, avtosport, boks, kikkboxing, tay boks, qoidalarsiz jang, havo sharida parvoz qilish (yo'lovchi sifatida emas), vindserfing, balandlikdan sakrash, akrobatik elementlar bilan bog'liq yoki ularsiz harakatlarni qo'llash, yoki to'siqlarni yengish bilan bog'liq sport turlari (keyingi matnda – maxsus sport turlari) bilan shug'ullanish natijasida yuzaga kelgan xarajatlari ushbu Qoida bilan qoplanmaydi. 10.1 va 10.2 bandlarda qayd etilgan jismoniy faollikdan hech bo'lmasa bittasiga balandlikdan sakrash, akrobatik elementlar kiritilgan bo'lsa, ushbu faollik maxsus sport turlariga tenglashtiriladi va ushbu Qoida bilan qoplanmaydi.

11- BO'LIM. ISTISNOLAR

11.1. Sug'urta hodisasi belgilariga ega bo'lib, lekin quyidagi xar qanday omillardan birining bevosita natijasida yuzaga kelgan hodisa ro'y berganda sug'urta to'lovi/qoplamasi amalga oshirilmaydi:

11.1.1. bevosita tibbiy qarshi ko'rsatmalar mavjudligiga qaramay sayohat qilgan Sug'urtalangan shaxs sog'lig'ining yomonlashuvi yoki vafoti bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;

11.1.2. baxtsiz hodisa ro'y berganda Sug'urtalangan shaxsning organizmida narkotik yoki psixotrop moddalarning mavjudligi tasdiqlansa, yoki shifokor tomonidan ko'rsatilmagan dori-darmonlardan foydalanganligi tasdiqlansa, ushbu holat ro'y bergan voqeaga taaluqli bo'lgan tibbiy xulosalarda/raportlarda aks etgan bo'lishi, guvohlar ko'rsatmalarida va boshqa hujjatlarda qayd qilinishi mumkin.

11.1.3. ruhiy kasalliklar va holatlar, epilepsiya (birlamchi va simptomatik), nevrozlar (vahimali hujumlar, depressiyalar, isterik sindromlar va h.k.), shuningdek markaziy asab tizimi kasalliklari;

11.1.4. homiladorlik (ushbu sug'urta sharnomasining 8.1.2. bandida nazarda tutilgan holatdan tashqari), tug'ish va/yoki abort bilan bevosita bog'liq istalgan hodisalar/oqibatlar, shuningdek oilani rejalashtirish va bepustlikni davolash bilan bog'liq xizmatlar uchun xarajatlar;

11.1.5. jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar va ularning oqibatlari, tanosil kasalliklari, OITS va VCh-infeksiya keltirib chiqaradigan barcha kasalliklar;

11.1.6. Sug'urtalangan shaxs ma'lum bo'lish yoki bo'lmasligidan qat'iy nazar, onkologik kasalliklar, yangi o'smalar (zararli va bezarar);

11.1.7. tibbiy nuqtai nazardan zaruriy sanalmagan, yoki shifokor tomonidan buyurilmagan xizmatlarni ko'rsatish, shuningdek kechiktirib bo'lmaydigan deb hisoblanmaydigan jarrohlik amaliyotlari;

11.1.8. reabilitatsiya chora-tadbirlari uchun xarajatlar;

11.1.9. a'zolari ko'chirib o'tkazish uchun xarajatlar;

11.1.10. Sug'urtalangan shaxsning sug'urta hodisasi tufayli murojaat etishi natijasida olingan davolovchi shifokor ko'rsatmalarini bajarishdan ixtiyoriy bosh tortish natijasida yuzaga kelgan xarajatlar;

11.1.11. istalgan kasalliklarning oldini olish tadbiri, emlash, dezinfeksiya qilish, sanatoriy-kurort davolanishi, tiklovchi va sog'lomlashtiruvchi davolanish, gelioterapiya, suv bilan davolanish, fizioterapiya, manual terapiya, istalgan turdagi massaj va h.k.;

11.1.12. tashxis qo'ymasdan noan'anaviy tibbiyot usullari bilan davolanish yoki qo'yilgan tashxisga mos kelmaydigan davolanish;

11.1.13. kosmetik/plastik jarrohlik, tashqi ko'rinish yoki tana anomaliyalarini bartaraf etish bilan bog'liq davolanish, shuningdek istalgan turdagi protez qilish, shu jumladan tish va ko'zni protez qilish;

11.1.14. Sug'urtalangan shaxsning irsiy va/yoki tug'ma kasalliklari, a'zolar anomaliyalari va rivojlanish nuqsonlari hamda ularning asoratlarning zo'rayishi yoki yomonlashuvi natijasida yuzaga kelgan xarajatlar;

11.1.15. surunkali kasalliklar va/yoki ularning zo'rayishi va yomonlashishi va/yoki ularni namoyon bo'lishining boshqa shakllari va ko'rinishlari;

11.1.16. murakkab va/yoki shifoxonada uzoq vaqt davolashni, shu jumladan kardiojarrohlik amaliyoti bilan davolashni (angiografiya, angioplastika, shuntlashni o'z ichiga olgan holda), shuningdek avval boshdan o'tkazgan qon aylanish tizimi kasalliklari va jarrohlik amaliyotlari natijasida vujudga kelgan ilk va kechki asoratlarni davolashni talab qiluvchi qon aylanish tizimi kasalliklari (arterial qon bosim ko'tarilishi va pasayishidan tashqari);

11.1.17. uzoq vaqt davomida va/yoki boshqa kasalliklarning mavjudligi sababli paydo bo'ladigan, murakkab va/yoki shifoxonada uzoq vaqt davolashni talab qiladigan kasalliklar (infarkt, insult, qandli diabet, buyrak yetishmovchiligi, sil, jigar tsirrozi, virusli gepatitlar, istalgan turdagi anevrizmlar, endokrin kasalliklar va x.k.).

Yuqorida qayd etilgan kasalliklar ilk aniqlangan holatda, Sug'urtalovchi 700 (etti yuz) Yevrogacha xizmatlarni tashkillashtiradi va/yoki Sug'urtalangan shaxsning xarajatlarini to'laydi;

11.1.18. kasb kasalliklari, davolash uchun sayohat uyushtirilgan kasalliklar;

11.1.19. ko'rish qobiliyatini yaxshilash uchun asboblarni (ko'zoynak va gardishlar, linzalar, lupalar va h.k.) taqdim etish, shuningdek boshqa yordamchi vositalar (protezlar, hassalar, aravachalar va h.k.);

11.1.20. darmondorilar, ozuqaviy qo'shimchalar, ozuqa boyituvchilar, o'simlik mahsulotlari, gomeopatik vositalarni xarid qilish;

11.1.21. Sug'urtalangan shaxsning o'ta xavfli va tropik kasalliklar: o'lat, vabo, chechak, sariq bezgak, gemorragik isitma, kuydirgi, tepkili terlama va h.k. bilan bog'liq xarajatlari;

11.1.22. motorli transport vositalarini boshqarish yuzaga kelgan hodisalar, (kvadrosikl, motoroller, moped, skuter, suv skuteri, avtomobilni boshqarish va/yoki motorli transport vositalarida yo'lovchi sifatida yurish bundan mustasno);

11.1.23. Sug'urtalangan shaxsning doimiy yashash mamlakatiga qaytganidan so'ng, shuningdek sug'urta qilish davri tugagandan so'ng davolanish xarajatlari.

11.2. Sug'urtalangan shaxs bilan quyidagi hollarda yuz bergan hodisa sug'urta hodisasi deb sanalmaydi va Sug'urtalovchi xarajatlarni to'lamaydi:

11.2.1. o'z-o'zini o'ldirishga urinish yoki o'z-o'zini o'ldirish;

11.2.2. birorta harbiy tuzilmada o'z xizmat majburiyatlarini o'tash vaqtida;

11.2.3. jismoniy ish bajarayotganda, agar ushbu sug'urta shartnomasida "Maxsus shartlar" bo'limida "Ish" belgisi ko'rsatilmagan bo'lsa;

11.3. Sug'urtalovchi quyidagilar asosida bevosita yoki bilvosita yuzaga kelgan xarajatlarni to'lamaydi:

11.3.1. terroristik akt (yakka tartibda yoki birorta tashkilot yoki hukumat bilan bog'liq ravishda yoki uning nomidan faoliyat yurituvchi istalgan shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan siyosiy, diniy, mafkuraviy yoki etnik qarashlardan kelib chiqib va hukumatga yoki jamiyatga yohud uning birorta qismiga ta'sir ko'rsatish niyatida bajariladigan kuch va zo'rvonlik yoki tahdidni qo'llash bilan namoyon bo'luvchi akt), shu jumladan terroristik aktning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar natijasida kelib chiqqan zarar qoplanmaydi;

11.3.2. urush akti, chet ellik dushmanning bostirib kirishi, xarbiy xarakterli (urush e'lon qilish yoki qilinmasligidan qat'i nazar), fuqarolik urushlari, qo'zg'olonlar, inqiloblar, isyonlar va fuqarolik g'alayonlari;

11.3.3. Sug'urtalangan shaxs bilan uning garov o'ynash va jinoyatlarda, shuningdek urush-janjalda ishtiroki natijasida ro'y bergan baxtsiz hodisalar, o'z fuqarolik burchini yoki o'z (yoki uchinchi shaxslarning) shaxsiy hayotini, sog'lig'ini, or-nomusini va qadr-qimmatini himoya qilish bilan bog'liq hatti-harakatlardan tashqari;

11.3.4. Sug'urtalangan shaxsning transport vositasini alkogol, narkotik, zaharli yoki boshqa mastlik holatida boshqarish va /yoki transport vositasini boshqarish uchun tegishli ruhsatnomasiz/huquqsiz boshqarish, shuningdek Sug'urtalangan shaxs tomonidan yuqoridagi holatga tushgan va/yoki yuqoridagi ruhsatnomasi/huquqi bo'lmagan shaxsga transport vositasini boshqarishni topshirish natijasida Sug'urtalangan shaxs bilan ro'y bergan baxtsiz hodisalar;

11.3.5. Sug'urtalangan shaxsning sug'urta hodisasini sodir bo'lishiga sabab bo'lgan noqonuniy harakatlarni sodir etishi;

11.3.6. Sug'urtalangan shaxsning sog'lig'i holatiga yoki unga tibbiy xizmatlar va ular bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishga tegishli avvaldan yolg'on ma'lumotlarga ega hujjatlarni taqdim etish;

11.3.7. sug'urta hodisasining ro'y berishi tufayli kelib chiqqan zararlar hajmini tasdiqlovchi kerakli hujjatlarni taqdim etmaslik;

11.3.8. Sug'urtalovchi tomonidan so'ralgan, mazkur Qoidaning 12.7-12.8 bandlarida so'z yuritilgan hujjatlarni taqdim etmaslik;

11.3.9. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

11.4. Ushbu Qoida shartlariga muvofiq Sug'urtalovchi bilvosita zararlar, shu jumladan man'aviy zarar, olinmagan foyda, penyalar, jarimalar, neustoykalar va boshqa moliyaviy jazolarni qoplamaydi va ular bo'yicha javobgarlikdan ozod etiladi.

12- BO'LIM. SUG'URTA DA'VOSINI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

12.1. Sug'urta hodisasi ro'y berganda Sug'urtalangan shaxs yoki uning vakili Assistans Xizmatiga Sug'urta polisida ko'rsatilgan telefonlar yoki boshqa aloqa vositalari orqali murojaat qiladi va imkoniyatga qarab operatorga vaziyat to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni beradi:

- Yordamga muhtoj Sug'urtalangan shaxsning familiyasi va ismi;
- Sug'urta polisining raqami va sug'urta qilish davri;
- Sug'urtalovchining nomi;
- Yuz bergan hodisa holatlarini izohlash va kerakli yordamning tavsifi;
- Joylashgan manzili va qayta aloqaga chiqish uchun telefon raqami.

12.2. Ma'lumotlar olingandan so'ng Assistans Xizmati Sug'urtalangan shaxsga polisda ko'rsatilgan kerakli xizmatlarni ko'rsatishni tashkillashtiradi, shuningdek Sug'urtalangan shaxsning xarajatlarini ushbu sug'urta shartnomasi shartlariga muvofiq to'laydi.

12.3. Assistans xizmatiga shifokor maslahatini olishdan yoki shifoxonaga jo'natishdan oldin qo'ng'iroq qilish imkoniyati mavjud bo'lmaganda, Sug'urtalangan shaxs Assistans Xizmatiga birinchi imkon tug'ilishi bilan qo'ng'iroq qilishi zarur. Har qanday holatda Sug'urtalangan shaxs hisoblarni/xarajatlarni to'lashdan oldin Assistans Xizmatiga yoki Sug'urtalovchiga yuz bergan hodisa haqida xabar berishi va tibbiyot xodimlariga polisni taqdim etishi kerak.

12.4. Assistans Xizmati bilan bog'lanish imkoniyati bo'lmaganda, Sug'urtalangan shaxs sug'urta hodisasi bilan bog'liq xarajatlarni mustaqil ravishda to'lashi mumkin. Bunda Sug'urtalangan shaxs Sug'urtalovchiga ro'y bergan hodisa to'g'risida yozma murojaat qiladi.

12.5. Ariza Sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi ro'y bergan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kuni mobaynida, lekin Sug'urtalangan shaxs sayohatdan qaytgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kundan kech bo'lmagan vaqtda taqdim etiladi.

12.6. Sug'urta hodisasi qarab, arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilingan bo'lishi zarur:

12.6.1. Sayohatda Sug'urtalangan shaxs to'satdan kasallikka uchraganda va/yoki baxtsiz hodisa ro'y berganda:

- a) Polis yoki uning nusxasi;
- b) Sug'urtalangan shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning (asl nusxasini albatta taqdim etgan holda) nusxasi;
- v) muassasaning kerakli ma'lumotlar ko'rsatilgan hisob-ma'lumotnomasi (kasalning familiyasi, tashxisi, xizmatlar bo'yicha murojaat sanasi, davolash davomiyligi va h.k.);
- g) ushbu kasallik tufayli shifokor tomonidan berilgan retseptning asl nusxasi;
- d) muassasaning ko'rsatilgan xizmatlarning sanalari, nomlari va qiymatlari ko'rsatilgan hisobining asl nusxasi;
- e) xizmatlar haqini to'lash holatini tasdiqlovchi hujjatlarning (to'lov to'g'risidagi shtamp, pulni olish to'g'risidagi yozuvnoma yoki bank tomonidan pul miqdori o'tkazilganligini tasdiqlanishi va h.k.) asl nusxalari;

j) muassasaning Sug'urtalangan shaxsning organizmida alkogol, narkotik, zaharli yoki boshqa mast qiluvchi moddalarning yo'qligini tasdiqlovchi xulosasi yoki boshqa hujjati - Sug'urtalangan shaxs istalgan turdagi transport vositasini boshqarishi natijasida u bilan baxtsiz hodisa ro'y berganda;

12.6.2. Sug'urtalangan shaxs sayohatda baxtsiz hodisa tufayli vafot etganda:

- a) Polis yoki uning nusxasi;
- b) sug'urta to'lovini olish huquqiga ega Naf oluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatning (asl nusxasini albatta taqdim etgan holda) nusxasi;
- v) baxtsiz hodisa sharoitlarini batafsil yoritish va imkon boricha guvohlarning ismi-sharifi va bog'lanish ma'lumotlarini berish;
- g) huquqni muhofaza qiluvchi organlarning (agar ish huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ko'rib chiqilgan bo'lsa) baxtsiz hodisa yuzasidan dalolatnomasining (hodisaning sharoitlari va sabablarini yorituvchi bayonnoma yoki boshqa istalgan hujjatning) asl nusxasi;

d) Sug'urtalangan shaxsning vafoti to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi yoki Sug'urtalangan shaxsni vafot etgan yoki izsiz yo'qolgan (Sug'urtalangan shaxs yo'qolib qolganda) deb e'lon qilish to'g'risidagi sud qarorining asl nusxasi.

e) Sug'urtalangan shaxsning organizmida narkotik yoki psixotrop moddalarning mavjudligi, yoki shifokor tomonidan ko'rsatilmagan dori-darmonlardan foydalanish qayd etilgan ekspertiza va boshqa tibbiy xulosalar.

12.7. Sug'urtalovchining talabiga ko'ra rus va ingliz tillaridan boshqa chet tilida tuzilgan mazkur Qoidaning 12.6- bandida ko'rsatilgan hujjatlar Arizachi (Sug'urta qildiruvchi/ Sug'urtalangan shaxs/Naf oluvchi) mablag'lari hisobidan tarjima qilinishi kerak.

12.8. Zaruratga ko'ra va sharoitlarni, shuningdek zarar hajmini aniqlash hamda sug'urta to'lovini amalga oshirish bo'yicha masalani tartibga solish maqsadida Sug'urtalovchi mazkur Qoidaning 12.6- bandida ko'rsatilmagan boshqa hujjatlarni talab qilish huquqiga ega.

12.9. Zarur bo'lganda Sug'urtalovchi taqdim etilgan hujjatlarni tekshiruvdan o'tkazishi, sug'urta hodisasi sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega tashkilotlardan ma'lumotlarni so'rab olishi, shuningdek Sug'urtalangan shaxsning tibbiy tekshiruvini o'tkazish huquqiga ega.

12.10. Sug'urta hodisasining tavsifi va sharoitlariga qarab, Sug'urtalovchi mazkur Qoidaning 12.7- bandi talablarini o'zi bajargan holda 12.6- badda ko'rsatilgan hujjatlar/ma'lumotlarning to'liq ro'yxatini talab qilmasdan, yuz bergan voqeani sug'urta hodisasi deb tan olish yoki tan olmaslik (yoki sug'urta to'lovini rad etish) to'g'risidagi qarorni qabul qilish huquqiga ega.

12.11. Har qanday holatda sug'urta hodisasi sodir bo'lgaligini, zararlar miqdorini asoslash va sug'urta to'lovini to'lab berish bo'yicha Sug'urtalovchining javobgarligini isbotlash Sug'urta qildiruvchi/Sug'urtalangan shaxs/Naf oluvchi tomonidan amalga oshiriladi.

12.12. Agar Sug'urtalangan shaxs mazkur Qoidaning 12.5- bandi talablarini buzgan holda sug'urta hodisasi to'g'risida ariza bersa, Sug'urtalovchiga ro'y bergan hodisa to'g'risida tezroq xabar berish imkoni bo'lmaganligini isbotlash uning majburiyati bo'lib hisoblanadi.

12.13. Agar sug'urta hodisasining sodir bo'lishiga sabab bo'lgan holatlar bo'yicha Sug'urtalangan shaxsга nisbatan jinoyi ish ochilgan yoki sud jarayoni boshlangan bo'lsa, sug'urta to'lovini to'lash to'g'risidagi qaror surishtiruv ishlari yoki sud jarayoni tugaguncha kechiktirilishi mumkin.

12.14. Sug'urta pulini to'lashni rad etish to'g'risidagi qaror Sug'urta qildiruvchi/Sug'urtalangan shaxs/Naf oluvchiga yozma ravishda Sug'urtalovchiga sug'urta puli yuzasidan murojaat etilgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kun mobaynida, ushbu Qoidada o'rnatilgan tartibda ma'lum qilinadi va unda rad etish sabablari dalillarga asoslangan bo'lishi kerak.

13- BO'LIM. SUG'URTA QOPLAMASINI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

13.1. Sug'urta qoplamasi Sug'urtalovchi va sug'urta to'lovini olish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan imzolangan sug'urta hodisasi to'g'risidagi Dalolatnoma asosida, sug'urta hodisasi Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta hodisasi deb tan olingan vaqtdan boshlab 15 (o'n besh) kun mobaynida amalga oshiriladi.

13.2. Sug'urta to'lovi O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – So'mda, xarajatlar amalga oshirilgan chet el valyutasiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan sug'urta mukofoti to'langan sanada belgilangan kurs bo'yicha, Arizachi/Sug'urtalangan shaxs/Naf oluvchining bank hisob raqamiga bir yo'la pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

13.3. Agar xarajatlar amalga oshirilgan chet el valyutasi kursi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanmagan bo'lsa, tomonlar ushbu chet el valyutasining O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – So'mga nisbatan kursning aniqlash manbasini belgilab oladilar va ushbu hol sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnomada ko'rsatiladi.

13.4. Mazkur Qoidaning 9- bo'limi bo'yicha Sug'urta to'lovi O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – So'mda, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan sug'urta mukofotini to'lash kuni uchun o'rnatilgan Yevro kursi bo'yicha Naf oluvchining bank hisob raqamiga bir yo'la pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

13.5. Sug'urtalangan shaxsга ko'rsatilgan xizmatlar uchun Sug'urtalovchi tomonidan muassasaga to'langan har bir to'lov, Sug'urta dasturiga kiritilgan har bir xizmat bo'yicha sug'urta summasini to'langan to'lov miqdorida kamaytiradi.

13.6. Bir yoki bir nechta sug'urta hodisasi bo'yicha Sug'urtalovchi tomonidan amalga oshirilgan Sug'urta to'lovining umumiy hajmi Sug'urta dasturiga kiritilgan har bir xizmat bo'yicha sug'urta summasidan oshishi mumkin emas.

13.7. Sug'urta to'lovi amalga oshirgandan so'ng mazkur Qoidaning 12.6- bandida ko'rsatilgan hujjatlarning asl nusxalari Sug'urta qildiruvchi/Sug'urtalangan shaxs/Naf oluvchiga qaytarilmaydi.

14- BO'LIM. SUG'URTA POLISINI BEKOR QILISH TARTIBI

14.1. Sug'urta polisining amal qilishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlarda bekor qilinadi.

14.2. Polis Sug'urta qildiruvchining yozma arizasiga binoan istalgan vaqtda muddatdan oldin bekor qilinishi mumkin.

14.3. Sug'urta mukofotini to'liq/qisman qaytarish Sug'urta qildiruvchi tomonidan Polis Sug'urtalovchiga qaytarilishi sharti bilan hisobvaraqga (plastik kartaga, bankdagi hisobvarag'iga yoki talab qilib olinadigan hisobvaraqga) pul mablag'larini bir yo'la o'tkazish yo'li bilan quyidagi tartibda va holatlarda amalga oshiriladi:

14.3.1. Sug'urta qildiruvchi ushbu Sug'urta polisida ko'rsatilgan Polisning amal qilish muddati boshlanishidan avval sug'urta qilishdan voz kechish haqida ma'lum qilsa – Sug'urtalovchi unga to'langan sug'urta mukofotini to'liq hajmida qaytaradi.

14.3.2. Sug'urta qildiruvchi ushbu Sug'urta polisida ko'rsatilgan Polisning amal qilish muddati boshlanganidan so'ng sug'urta qilishdan voz kechishi haqida ma'lum qilsa – Sug'urtalovchi unga to'langan sug'urta mukofotini tugamagan sug'urta davri uchun belgilangan hajmida qaytaradi.

14.3.3. Sug'urtalangan shaxsning xorijda bo'lish vaqti o'zgarishi sababli xorijdan muddatidan ilgari qaytsa – Sug'urtalovchi unga sug'urta mukofotini foydalanilmagan sug'urta davri uchun belgilangan hajmining 85 (sakson besh) foizini qaytaradi;

14.3.4. Mazkur Qoidaning 14.3- bandida nazarda tutilgan yuqorida qayd etilgan barcha holatlar bo'yicha, «Shengen kelishuvi» mamlakatlariga 92 (to'qson ikki) kungacha muddatga Polisni rasmiylashtirgan Sug'urta qildiruvchiga sug'urta mukofotini yoki uning qismini qaytarish chog'ida, mazkur Qoidaning 4.5- bandiga muvofiq Sug'urta polisining amal qilish muddatiga qo'shilgan so'nggi 15 (o'n besh) kun hisobga olinmaydi.

14.4. Sug'urta mukofoti quyidagi holatlarda qaytarilmaydi:

14.4.1. Ushbu Qoidada ko'rsatilgan sug'urta davri mobaynida sug'urta hodisasi ro'y berib, Sug'urtalovchi o'z majburiyatlarini bajargan yoki bajarayotgan bo'lsa;

14.4.2. Sug'urtalangan shaxsning pasportida sayohat uchun vizing mavjudligi va ushbu vizani olish uchun Sug'urta polisi bo'lishi kerak degan amaldagi viza mavjud bo'lsa;

14.4.3. Sug'urta qildiruvchi Sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta davri tugagandan so'ng, sug'urta qilishdan voz kechish haqida ma'lum qilganda.

15- BO'LIM. BOSHQA SHARTLAR

15.1. Tomonlar o'z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajarmaslik yoki noto'g'ri bajarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

15.2. Ushbu Qoidada ko'zda tutilgan yoki u bilan bog'liq, shu jumladan uni bajarish va buzishga tegishli masalalar bo'yicha bahslar, talablar yoki tushunmovchiliklar yuzaga kelganda, tomonlar ularni muzokaralar yo'li bilan hal etish chorasini ko'radilar.

15.3. Bahslar, talablar yoki tushunmovchiliklarni hal etish imkoniyati bo'lmaganda, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

15.4. Agar birorta yuzaga kelgan vaziyatlar (sharoitlar) ushbu sug'urta shartnomasida o'z aksini topmagan bo'lsa, Sug'urtalovchi o'z fikriga tayanib, o'zaro kelishuv asosidagi qarorni qabul qilish huquqiga ega.



Sayohatchilarni sug`urta qilish E-
polisiga ilova

Приложения к Е-полису страхования
путешествующих №

Application for International Travel
Insurance policy №

Sug`urta qildiruvchining ma'lumotlari / Данные страхователя / Policyholder details			
Sug`urta qildiruvchi / Страхователь / Policyholder		Bog`lanish raqami / Контактный номер / Contact number	
Sug`urtalangan shaxslarning ma'lumotlari / Данные застрахованных лиц / Data of insured persons			
Sug`urtalangan shaxslar / Застрахованные лица / Insured persons	Tug`ilgan sana / Дата рождения / Date of birth	Pasport ma'lumotlari / Детали паспорта / Passport details	
1.			
2.			
3.			
Sug`urta shartlari / Условия страхования / Insurance terms			
Sug`urta hududi / Территория страхования / Territory of cover	Sug`urta muddati / Период страхования / Insurance period	Kunlar / Дней / Days	
	с _____ до _____		
Tibbiy xizmatlar / Медицинские услуги / Medical services	Tibbiy-transport xizmatlari / Медико-транспортные услуги / Medical and transportation services	Boshqa xizmatlar / Другие услуги / Other services	
Umumiy sug`urta qoplamasi / Общее страховое покрытие / Total sum insured	Dastur / Программа / Program	Alohida shartlar / Особые условия / Special conditions	Sug`urta mukofoti / Страховая премия / Insurance premium

<p>Shartnomaning haqiqiyligini tekshiring / Проверьте действительность договора / Check contract validity</p>		<p>Sayohatchilarni sug`urtalash polisi / Полис страхования путешествующих / Travel insurance policy</p> <p style="font-size: 2em; font-weight: bold;">QR</p> <p>код ссылка на сайт Проверка полиса</p>	
---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--

Shartnoma raqami / Номер договора / Contract number:
Berilgan vaqti / Дата выдачи / Date of issue:

SUG'URTALANGAN SHAXSGA ESLATMA/ПАМЯТКА ЗАСТРАХОВАННОМУ ЛИЦУ/REMINDER TO THE INSURED

Diqqat! Shoshilinch tibbiy yordam olish uchun qaysi mamlakatda bo'lishingizga bog'liq holda quyida ko'rsatilgan raqam orqali qo'ng'iroq qiling. Agar bog'lanishni imkoni bo'lmasa, u holda kun-u tun ishlaydigan mijozlarga xizmat ko'rsatish markazining messengerlariga matnli xabar yo'llang:

Внимание! Для получения экстренной медицинской помощи, позвоните по нижеуказанному номеру, в зависимости от страны пребывания. Если нет возможности связаться, то отправьте текстовые сообщения в мессенджеры круглосуточного сервисного центра:

Attention! For medical emergencies, call the number below, depending on the country of stay. If no contact is possible, send text messages to the messengers of the 24-hour service center:

 Turkey	 United Arab Emirates		 +41 78 856 07 42
 Indonesia	 Singapore		 +90 (242) 310 28 44
 Vietnam	 Malaysia		 kafil@remed.com.tr
 Thailand			 +20 10 6636 3444
			 +20 10 2354 3838
 Egypt	 Tunisia		 +20 2 2413 7308
			 kafil@remed.com.tr
			 +41 78 856 07 42
In any other countries:			 +90 (242) 310 28 43
			 kafil@remed.com.tr

Agar sizda Assistance xizmatiga qo'ng'iroq qilish imkoniyati bo'lmasa, "KAFIL.UZ" veb-sayti orqali operatorlarimiz bilan bir zumda bog'lanishingiz mumkin. Shunchaki "SOS" tugmasini bosing, so'ng kun-u tun mijozlarni qo'llab quvvatlash markazimizning operatorlari sizga qayta qo'ng'iroq qilishlari uchun aloqa raqamingizni ko'rsating. Agar sizda vaqtincha bo'lish mamlakatida telefon raqamingiz bo'lmasa, siz mashhur Whatsapp va Telegram messengerlari orqali bog'lanishingiz mumkin.

Если у вас нет возможности позвонить в службу Ассистанс, Вы можете мгновенно связаться с нашими операторами при помощи сайта "KAFIL.UZ". Достаточно нажать на Кнопку "SOS" и затем указать Ваш контактный номер, чтобы операторы нашего круглосуточного Центра поддержки клиентов смогли перезвонить Вам. При отсутствии телефонного номера в стране пребывания, Вы сможете выйти на связь при помощи популярных мессенджеров Whatsapp и Telegram.

If you are unable to call the Assistance service, you can instantly contact our operators using the "KAFIL.UZ" website. Just click on the "SOS" Button and then enter your contact number so that our 24/7 Customer Support Center operators can call you back. In the absence of a phone number in the country of temporary stay, you will be able to get in touch via popular messengers Whatsapp and Telegram.

Murojaat uchun manzil: 100000, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 59
Контактный адрес: 100000, Республика Узбекистан, город Ташкент, Мирзо Улугбекский район, проспект Мустакиллик, 59
Contact address: Mustakillik Avenue, 59, Tashkent, 100000, Uzbekistan

Phone: +99894 808 04 14, Call-center: +998 71 200 04 14, e-mail: info@kafil.uz

Remy – первый виртуальный ассистент компании Remed Assistance, основанный на искусственном интеллекте. Это автоматизированная программа, которая общается с клиентами так же, как и настоящий сотрудник Remed Assistance.

С помощью Remy можно заявить о новом страховом случае или загрузить документ в ранее заявленный случай. Вся личная информация, которая предоставляется Remy, остается строго конфиденциальной и не передается третьим лицам.

Remy доступен на двух языках, на английском и на русском.



Sug'urta qoidalari
Правила страхования
Insurance rules



Sug'urta hodisasi ro'y berganda, ariza
qoldirish uchun
Для отправки заявки при страховом случае
To send requests in case of an insurance claim

SIZGA MAROQLI SAYOHAT TILAYMIZ!!! ЖЕЛАЕМ ВАМ ПРИЯТНОГО ПУТЕШЕСТВИЯ!!! WE WISH YOU A PLEASANT TRIP!!!

Shartnoma raqami / Номер договора / Contract number:

Berilgan vaqti / Дата выдачи / Date of issue: